



SAMARQAND VILOYATI NUROBOD TUMANI HOKIMI QARORI

141100, Nurobod tumani, Mustaqillik ko'chasi, 2-uy. Tel: (66) 633-16-34, (66) 633-21-65, e-mail: nurobod.t@exat.uz

Nurobod tumanidagi yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli avtomototransport vositalari va ularni tirkamalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish haqida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-sonli "Transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish tartibini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-yil 9-son, 320-modda) 6-moddasiga asoslanib

QAROR QILAMAN:

1. Tuman hududidagi mulkchilik shaklidan qat'iy nazar yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli avtomototransport vositalari va ularni tirkamalarini tegishli tartibda majburiy texnik ko'rikdan o'tkazilsin.

2. Tumanda transport vositalari quyidagi davriylikka muvofiq texnik ko'rikdan o'tkazilsin:

a) tijorat asosida yo'lovchilar tashish uchun foydalaniladigan yengil avtomobillar, avtobuslar, haydovchi o'rnidan tashqari o'tirish uchun sakkiztadan ko'p bo'lmagan o'rindiqlarga ega, odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og'ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularga tirkamalar — bir yilda ikki marta;

b) ishlab chiqarilganligiga besh yildan ko'p bo'lmagan (ishlab chiqarilgan yili ham shu jumlagi kiradi) transport vositalari (mazkur bandning "a" kichik bandida ko'rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — ikki yilda bir marta;

v) ishlab chiqarilgan yilini hisobga olgan holda ishlab chiqarilganligiga besh yildan ortiq bo'lgan transport vositalari, shuningdek ishlab chiqarilgan vaqti

aniqlanmagan transport vositalari (mazkur bandning “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — bir yilda bir marta;

g) tirkamalar ko‘rikka transport vositasi — shatakchi uchun belgilangan muddatlarda.

3. Mazkur qarorning 2-bandi “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marta -1-mart-30-iyunda;

ikkinchi marta – 1-sentabr-31-oktabrda o‘tkaziladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik ko‘rigi 1-yanvar – 31-dekabrgacha o‘tkazilishi inobatga olinsin.

4. Tumanda 2023-yilgi texnik ko‘rikni o‘tkazish uchun tuzilgan komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq, yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarini 2023-yilgi majburiy texnik ko‘rigini o‘tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-sonli “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorining 3-bandi talablaridan kelib chiqib, tuman mudofaa bo‘limi, ichki ishlar bo‘limi va Davlat xavfsizlik xizmati harbiy bo‘linmalari transport vositalari majburiy texnik ko‘riklari o‘z yuqori tashkilotlarining qarori va ish rejasi asosida amalga oshirilishi nazarda tutilsin.

6. Ushbu qaror qabul qilinishi bilan tuman hokimining 2021-yil 22-dekabrda 111-7-99-Q/22-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

7. Tuman hokimligi axborot xizmati (E.Pardayev)ga mazkur qarorni “Nurobod” gazetasida rasmiy e‘lon qilish, rasmiy e‘lon qilingandan so‘ng bir kun ichida tuman hokimligining (nurobod.uz) rasmiy veb-saytiga joylashtirish vazifasi yuklatilsin.

8. Mazkur qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

9. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari N.Raxmonov zimmasiga yuklansin.

Texnik ko'rikdan o'tkazish komissiyasi

T A R K I B I

1. D.Isoqov -tuman IIB YHXG katta inspektori, ishchi guruhi rahbari
a'zolari
2. A.Raimberdiyev -tuman IIB o'rinbosari
3. S.Samadov -tuman "Vatanparvar" MK kengashi raisi
4. K.Narkuziyev -tuman mudofa ishlari bo'limi
5. N.Allayarov -tuman JKB ga qarashli №5 avtosaroy xodimi

**2023-yil Davlat (yuridik) tashkilotlariga tegishli avtomototransport vositalarini
mavsumiy texnik ko'rikdan o'tkazish**

JADVALI

T/r	Tashkilot nomi	Ko'rikdan o'tkazish vaqti	Transport soni	Texnik ko'rikdan o'tkazish manzili	Tashkilot rahbarining F.I.SH
1	“Umarbek Umidjon ishonchi” uyushmasi	5.01.2023-yil	16	Avtosaroy	
2	Tuman XTB Tuman DSI	2.03.2023-yil	4	Tuman YHXG	
3	Tuman 1-son kasb-hunar maktabi, Tuman 2-son kasb-hunar maktabi, Nurobod pedagogika kolleji	3-4.03.2023-yil	4	Tuman YHXG	
4	Tuman hokimligi, Tuman Q va SX bo'limi	6-7.03.2023-yil	7	Tuman YHXG	
5	Tuman SEOM Tuman tibbiyot birlashmasi	9-10.03.2023-yil	14	Avtosaroy	
6	Nurobod tumani “Sahoba-ota Qorako'l nasl” chorvachilikka ixtisoslashgan MCHJ	13.03.2023-yil	6	Tuman YHXG	
7	Nurobod tumani “Tim Ag'ron chorvadorlari” chorvachilikka ixtisoslashgan MCHJ	15.03.2023-yil	8	Tuman YHXG	
8	Nurobod tumani “Olg'a” chorvachilikka ixtisoslashgan MCHJ	17.03.2023-yil	9	MMTP a/saroy	
9	Nurobod tumani “Kattaqo'rg'on” chorvachilikka ixtisoslashgan MCHJ, tumandagi “Nurbuloq” MMTP	22.03.2023-yil	12	Avtosaroy	
10	Nurobod tumani “Nurli el chorvadori” chorvachilikka ixtisoslashgan MCHJ, Tumandagi “Jarquduq” MMTP	24.03.2023-yil	14	Avtosaroy	
11	Shams – Mir q/k	27.03.2023-yil	2	Avtosaroy	
12	“Vatanparvar” MK	28.03.2023-yil	7	Avtosaroy	

13	Tuman YHTPFDK	29.04.2023-yil	4	Avtosaroy	
14	Nurli yo'l q/k	30.04.2023-yil	2	Avtosaroy	
15	JKB №5 a/saroy,	3.04.-15.04.2023-yil	149	Avtosaroy	
16	JKB Rudnik-"S", RMS	17.04.2023-yil	23	Avtosaroy	
17	Abu Ali Ibn Sino sihatgohi	19.04.2023-yil	9	Avtosaroy	
18	Zirabuloq GRE	21-24. 04.2023-yil	34	Avtosaroy	
19	Tuman veterinariya bo'limi, Obodonlashtirish bo'limi	25.04.2023-yil	9	Tuman YHXG	
20	Saroyqo'rg'on o'rmon xo'jaligi	27.04.2023-yil	6	Avtosaroy	
21	Nurobod tuman Xalq banki	28.04.2023-yil	1	Tuman YHXG	
22	Tuman aholi bandligiga ko'maklashish markazi, tuman agrosugurta bo'limi	01.05.2023-yil	2	Tuman YHXG	
23	Fermer xo'jaliklar	2-5.05.2023-yil	47	Tuman YHXG	
24	Boshqa tashkilotlar	8-15.05.2023-yil	124	Tuman YHXG	